



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

2020- yil yanvar-mart

RAQAMLAR:


- 2020- yil yanvar-mart oylarida bozor xizmatlari hajmi 728,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 163,8 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 858,7 ming so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushini oshishiga olib keladi.


2020- yil yanvar-mart oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 728,2 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,9 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni moliyaviy xizmatlar (29,3 %) tashkil etadi.

2020- yil yanvar-mart oylarida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan, %)



2020- yil yanvar-mart oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Joriy yilning yanvar-mart oylarida oldingi yilning yanvar-mart oylariga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (17,1 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (13,5 mlrd. so'mga) va moliyaviy xizmatlar (97,0 mlrd. so'mga) hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2020- yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**


	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar–jami	728,2	113,9
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	42,2	117,4
Moliyaviy xizmatlar	213,6	163,8
Transport xizmatlari	112,2	103,2
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>105,5</i>	<i>103,6</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	13,9	98,5
Savdo xizmatlari	195,5	95,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	17,4	100,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	34,9	98,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	11,8	120,8
Ijara xizmatlari	15,0	118,7
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	18,7	106,7
Shaxsiy xizmatlar	16,8	102,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	12,6	101,1
Boshqa xizmatlar	23,6	91,9

**2020- yil yanvar-mart oylarida tumanlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Sirdaryo viloyati	728,2	113,9
<i>shaharlar:</i>		
Guliston sh.	423,8	129,1
Shirin sh.	8,7	104,8
Yangiyer sh.	51,0	105,7
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	27,7	99,9
Guliston	21,2	105,4
Mirzaobod	33,6	107,9
Oqoltin	15,8	105,6
Sardoba	18,6	91,0
Sayxunobod	20,2	55,4
Sirdaryo	81,1	103,3
Xovos	26,5	105,6


Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lim va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

2020- yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2020- yil yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (163,8 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (120,8 %), Ijara xizmatlari (118,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (117,4 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

2020- yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha xizmatlar tarkibi, %




Hozirgi vaqtda savdo sohasi iste'molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari mamlakat iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Viloyatda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.

2020- yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 195,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 26,9 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 17,1 mlrd. so'mga oshdi.

2020- yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 75,6 % ni tashkil etdi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarning (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 18,5 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,9 % ni egalladi.

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2020- yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 213,6 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 163,8 % ni tashkil etdi.


2020- yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (95,6 %) katta salmoqqa egadir.

2020- yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 13,9 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 98,5 % ni tashkil etdi.

2020- yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining tarkibi, %




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 93,4 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 6,6 % ga to'g'ri keldi.

Ta'lim sohasidagi olib borilayotgan islohotlar avvalambor insonlar ongini va fikrlash doirasini kengaytirishga hamda ma'naviyatni yuksaltirishga yordam bermoqda.

2020- yilning yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 34,9 mlrd. so'mga teng bo'lib, ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 4,8 % ni tashkil etdi.


Ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi va o'sish sur'atining taqqoslanishi



O'tgan yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslanganda ta'lim sohasidagi xizmatlarning hajmi 6,4 mlrd. so'mga oshdi.

Sirdaryo viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining doimiy o'sishi kuzatilmoqda. 2020- yil yanvar-mart oylarida 858,7 ming so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 175,2 ming so'mga oshdi va o'sish sur'ati 111,7 % qayd etildi.

2020- yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, *ming so'm*




Tuman va shaharlar o'rtasida Guliston shahri (4672,0 ming so'm) bilan yetakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Guliston shahri bo'yicha 126,8 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan eng kichik hajm Boyovut (213,6 ming so'm), Sayxunobod (260,9 ming so'm) va Xovos (277,3 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.

2019- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, 2020- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Guliston shahrida (126,8 %), Mirzaobod (104,9 %) va Xovos tumanlarida (103,8 %) qayd etildi.

2020- yil yanvar-mart oylarida tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Tel: (71) 230-86-31